

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



"TASDIQLAYMAN"
Buxoro davlat universiteti rektori
O.X.Xamidov
29.09 2025 yil

JAHON MUSIQA TARIXI

FAN DASTURI

Fanning kodi:	JMT1205
Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	210000 – San'at
Bakalavriat yo'nalishi:	60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
	60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)

BUXORO-2025

Fan/modul kodl JMT1205		O'quv yill 2025-2026	Semestr 1-2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars Soatlari 2	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1	Jahon musiqa tarixi	60	90	150	

I. Fanning mazmuni

“Jahon musiqasi tarixi” fanining asosiy maqsadi - bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi, ular oldilariga qo'yiladigan masalalarni yechishda ijodiy yondoshishga o'rgatishdan iborat. Bu fanni o'rganayotganda talabalar kompozitorlarning estetik didlariga ahamiyat berishlari kerak. Yosh mutaxassislarni shaxs sifatida rivojlanishlarida hamda shaxsiy ijodiy o'rinlarini topishlarida mazkur fan muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Mazkur fan yuzasidan talaba musiqa san'ati rivojlanishi tarixiy jarayonining jamiyat tarixiy rivojlanishining evolyusiyasi bilan uzluksiz bog'liqligi, buyuk kompozitorlar ijodining jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri, musiqa haqida, uning mazmuni va ifodalash imkoniyatlari haqida tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu fan bo'yicha talaba Yevropa musiqa madaniyati, Amerika musiqa maktabi, Rossiya, Sharq xalqlari musiqa madaniyatini davrlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganligini namoyish etishi zarur.

Sharq xalqlari musiqa an'analarini o'rganish bo'lajak bastakorlar, musiqa tadqiqotchilari, nazariyotchilari va o'qituvchilarining badiiy-ilmiy tafakkur ko'lamini boyitish, musiqaviy dunyoqarashini kengaytirish uchun mo'ljallangan. Sharq xalqlari an'anaviy musiqa ijodiyotini o'rganish mavzulari tartibini belgilashda asosan musiqiy mintaqaviy (Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston, Pokiston va b.) va musiqiy-uslubiy (Maqomot, raga, musiqiy folklor va h.k.) tasnif tamoyillariga tayanildi. Fanni o'rganishda talabalarning maxsus tayyorgarlik darajasi, xorijiy sharq tillarini bilishlari e'tiborga olinadi. Bunda ular maxsus musiqiy-nazariy va umummadaniy, sharqshunoslik fanlaridan yetarli darajada bilimga ega bo'lishlari zarur.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-bo'lim

1-mavzu. Qadimgi davr musiqa san'ati. Qadimgi musiqa madaniyati o'choqlari. Qadimgi Yunon musiqa madaniyati. Tantanali aytim va

rivoyatlarni kuylovchi professional va mohir xonandalar. Qadimgi Yunon afsonalari va ulardagi san'at rahnamolari. Qadimgi Rim badiiy madaniyatining shakllanishi.

2-mavzu: O'rta asr musiqa madaniyati

O'rta asr cherkov musiqasi .O'rta asr katolik qo'shiqchiligidagi islohotni amalga oshirgan mualliflar . Grigoryan xoralning kuylash uslublari. Nota yozuvini amaliyotga kirishi . Ilk cherkov madhiyalari, O'rta asr sayyoh artistlar . Sarkarda (ritsarlar)lar doirasida XI asrga kelib shakllangan san'at namoyandalari.

3-mavzu: Uyg'onish davri musiqa san'ati

Bu davrni aynan "Uyg'onish"(Renesans) nomi bilan qayd etilishi. Barokko davri musiqa madaniyati. XVII asr va XVIII asr musiqa madaniyati. Italiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada opera san'ati . Ilk operalar san'ati va opera janri kompozitorlarining faoliyati.

4-mavzu: XVII asr g'arb-yevropa cholg'u musiqasi

Qadimgi raqs syuitasi XVII asr italyan lyutnyachilari va fransuz klavesinistlari ijodidagi yangiliklar. Cholg'u musiqasining alohida mustaqil ko'rinishda taraqqiy etishi. Alohida cholg'ular va ularda ijrochilikning rivojlanishi. Kompozitorlar ijodida cholg'u musiqasi janrlarining shakllanishi. Polifonik uslub va uning namoyandalari ijodi.

5-mavzu: Ma'rifat davri

I.S.Bax uchun organ cholg'usining ahamiyati. Nemis organ musiqasi "Uyg'onish davri"ning xor polifonik san'ati, Italyan va Nemis skripka maktablarining yorqin vakili . Vokal - cholg'u , organ musiqasi , xilma-xil cholg'ular (klavir , skripka , fleyta va hz) va cholg'u ansambllar , orkestr uchun yozgan asarlari tahlili. Zamondosh ijodkorlar ijodini targ'ibot qilishdagi faolligi.

Geog Fridrix Gendel ijodida novatorlik xususiyatlari. Musiqiy barokko uslubining yana bir yorqin vakili . ijodida turli milliy maktablar – nemis , italyan , ingliz va fransuz uslublari birlashtirishga muvofiq bo'lgan .Asarlarining janr tasnifi . Oratoriya , cholg'u musiqasi . "Tamerlan" operasi.

6-mavzu: Musiqa san'atida klassitsizm davri

XVIII asr konsert hayotining gullab yashnashi.Orkestr evolyutsiyasi . Vena klassik maktabi va uning namoyandalari faoliyati, Y.Gaydn, V.Mosart, L.Betxoven, K.Glyuklar ijodi klassitsizm g'oyalarining ifodasi sifatida.

7-mavzu: Romantizm davrining kompozitorlik ijodiyotidagi aksi.

(2-sem)

XIX asr. Musiqada romantizm davri, Romantik musiqa maktabi uchun

Fransuz revolyusiyasining ahamiyati. Romantik estetikaning, asosiy tamoyillari. Turli madaniyatlarda romantizmning ko'rinishlari. Musiqiy romantizm namoyandalari F.Shubert, G.Berlioz, F.Mendelson-Bartoldi, R.Shuman, F.Shopen, F.List, R.Vagner.

8-mavzu: Romantizm davrining musiqiy janrlari tafsiloti.

Opera, simfonik musiga, cholg'u va vokal musiqasi janrlari hamda boshga sahnaviy asarlarning XIX asrdagi, ko'rinishlari, Yangi uslub va janrlar, turli musiqalarining kompozitorlik ijodiyotiga kirib kelishi.

9-mavzu: XIX asr oxiri— XX asr boshlaridagi musiqiy madaniyat.

Fransiyada impressionizmning vujudga kelishi va rivojlanishi. K.Debyussi va M. Ravel ijodining estetik tamoyillari. Obraz. va ifoda vositalarida novatorlik zamonaviy musiqaga K.Debyussi va M.Ravel musiqasining ta'siri

10-mavzu: XX asr birinchi yarmida hukm surgan asosiy estetik yo'nalishlar.

XX asr birinchi yarmida hukm surgan madaniy - tarixiy jarayon, Asosiy estetik yo'nalishlar: ekspressionizm, neoklassitsizm, yangi dinamizm, heofolklorizm. Jazz, Yangi musiqiy tilning uslubi va asosiy qirralari, Janrlar sohasidagi izlanishlar: Opera, simfonik musiq, balet, kamer - cholg'u janrlarining ushbu davrdagi ijodkorlari. Texnika sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarning musiqiy hayotga ta'siri,

11-mavzu: XX asr yarmi Fransiya va Avstriya musiqasi madaniyati,

Fransuz kompozitorlik ijodining 1900-1920-yillardagi asosiy estetik yonalishlar, 20-yillar ijodiy guruhlar — fransuz oltilik guruhi va guruh a'zolarining faoliyati, Avstriya musiqasining XX asrdagi asosiy yonalishi ekspressionizm. Arnold Shyonberg kompozitorlik, pedagoglik faoliyati,

12-mavzu: XX asr ikkinchi yarmi Amerikaning klassik musiqasi.

Rivojlanishning asosiy yo'nalishlari. Kompozitorlar Alan Xovanness, Djon Keydj, Samyuel Barber, Filipp Glass ijodi. Uslub, janrlarning zamonaviy ko'rinishi. Yangi g'oyalarning kichik janrlarda ifodalinishi.

13-mavzu: Rus musiqasi tarixiy bosqichlari (XIX asr I yarmigacha gacha).

IX asrgacha Rus musiqasi madaniyatida mavjud xolatlar davrlar kesimida, O'rta asrlar slavyan madaniyati, Moskva Rusining professional musiga san'ati.

Cherkoy qo'shiqchilik san'atidagi yangiliklar, XVII asr rus musiqasi tarixi, XVIII asr rus musiqasi tarixidan sahifalar, XVII-XVIII asrlar rus musiqasi tarixiga oid nota misollari. Rus romansining buyuk ijodkorlari: A.Alyabyev, A.Verstovskiy, A.Varlamov, A.Gurilyovlar ijodi. M.Glinka rus musiga madaniyatida tutgan o'mi.

14-mavzu: XIX asr Rossiya musiqasi madaniyati

XIX asr rus musiqasi mazmunining boyligi va turli shaklliligi. Opera va simfoniya. A.Dargomizskiy ijodi. "Qudratli to'da". M.Balakirev, A.Borodin. M.Musorgskiy. M.Rimskiy Korsakovlar ijodining rus musiqasiga ta'siri Rus musiqasida navatoprlik ifodasi sifatida P.Chaykovskiy faoliyati. XIX asr oxiri XX asrda rus madaniyatidagi modernistic tamoyillar. A.Skryabin, S.Raxmaninov, I.Stravinskiy ijodi.

15-mavzu: XX asr rus musiqasi madaniyati, S.Prokofev, Shostakovichlar ijodi.

Eksperimentdan an'anaga tomon harakat. XX asr rus musiqasi madaniyati jamiyat hayotida ommaviy qo'shiqlarning roli, Konsert hayotining turli shakllari. Musiqiy ijrochilikning, rivojlanishi. Musiqiy teatrdagi izlanishlar. S.Prokofev, Shostakovichlarning opera, simfoniya va balet ijodi.

U1. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va taysiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiy etilad:

- 1.Musiqaning kelib chiqishi.
- 2.Musiqaning, falsafiy va ijtimoiy qarashlar tizimi bilan bog'liqligi.
- 3.San'atning rivojlanishida antik madaniyatning ahamiyati.
- 4.Yunon afsonalari
- 5.Gomer eposi, qadimgi yunon tragediyalari.
- 6.Ellin musiqasi madaniyati.
- 7.O'rta asrlar hayotida dinning ahamiyati.
- 8.Grigorian xorali va uning Yevropa musiqasining shakllanishidagi roli.
- 9.Vizantiya musiqasi madaniyati.
10. Polifonik maktablar shakllanishi
- 11.I S Bax ijodiy merosi
- 12.G.F.Gendel oratoriyalarning o'rni va ahamiyati
- 13 Klassitsizm va barokkodavri musiqasi
14. Opera janrining shakllanishi
- 15.Opera janrini tiklanishida Italiya va Fransiya musiqiy teatrlarining faoliyati
16. Klassitsizm davri cholg'u musiqasi san'atini rivojlanishi.
- 17.Buyuk Vena bastakorlari ijodi(Gaydn, Glyuk, Motsart, Betxoven)

18. Romantizm davri musiqasining muammolari.
19. Italiya romantizmining o'ziga xosligi.
20. XIX asr bastakorlari ijodida romantizm g'oyalarining aks etishi.
21. Romantiklar ijodida asosiy musiqiy shakllarning rivojlanishi.
22. Vagner va Verdi musiqiy mslohotlari
23. Vagnerning estetik tamoillari
24. XIX asr Fransuz musiqa madaniyatining rivojlanishi.
25. XIX cholg'u musiqaning rivojlanish yo'llari.
26. XX asr musiqa san'atining rivojlanishi.
27. XIX asr rus musiqa san'ati
28. XX asr rus musiqasi yo'nalishlar va omillar.
29. Prokofev baletlari.
30. D.Shostakovichning simfoniylari, vokal – simfonik asarlari.
31. D.Shostakovich "24 prlyudiya va fuga turkumi"

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. faol va interfaktiv usullar yordamida ztilishi, mos ravishda munosib pedagogik va ahborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Rossiya musiqa madaniyatining boshlang'ich davri
2. XVI-XVIII asrlar Rossiya musiqa madaniyati
3. XIX asr Rossiya musiqa madaniyati
4. XX asr birinchi yarmida rus musiqa madaniyati
5. XX asr ikkinchi yarmida rus musiqa madaniyati
6. Ukraina, Belorussiya, Moldova, Kavkaz, Baltiya musiqa madaniyati
7. Markaziy Osiyo va Qozog'iston musiqa madaniyati
8. M.I.Glinka opera va simfonik ijodi
9. A.S.Dargomijskiy opera ijodi. Romanslari
10. "Qudratli to'da" to'garagi faoliyatining ahamiyati
11. M.P.Musorgskiy opera ijodi. "Ko'rgazmadagi rasmlar". Romanslari
12. A.P.Borodin opera ijodi. "Bahodirlar" simfoniyasi
13. N.A.Rimskiy-Korsakov opera va simfonik ijodi
14. P.I.Chaykovskiy simfonik va fortepiano ijodi
15. A.N.Skryabin simfonik ijodi. S.V.Raxmaninov opera ijodi. Forte-piano musiqasi
16. D.Shostakovich hayoti va ijodi
17. S.Prokofyev hayoti va ijodi
18. V.A.Motsart hayoti va ijodi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar olingan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlaydilar, darslik va o'quv qo'llanmalaridan mavzuga oid ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Mavzu yuzasidan taqdimotlar tayyorlab, konspektlar yozadilar.

(Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Madaniyat rivojida antic madaniyatning ahamiyati. O'rta asrlar universalizm davrining musiqiy dunyoqarashi.
2. G'arbiy yevropa mamlakatlarida milliy polifonik maktablarning shakllanishi.
3. Klasitsizm , Opera musiqasi.
4. Cholg'u musiqaning rivojlanish tamoyillari.
5. G.F.Gendel ijodiy tamoyillari. G.F.Gendel ijodida sharq mavzulari.
6. G.F.Gendelning "Temurlan" operasi taxlili.
7. I.S.Bax ijodining tarixiy ahamiyati.
8. Orkestr evolyusiyasi.
9. Vena klassik maktabi va uning namoyandalari ijodiy tafakkuri.
10. Gaydin, Motsart. Betxoven, Glyuk ularning ijodi klasitsizm g'oyalarining ifodasi sifatida.
11. Musiqada romantizm davri.
12. Musiqiy romantizm namoyandalari. F.Shubert, G.Berlioz, F. Mendelson - Bartoldi. R. Shuman , F.List R.Vagner ijodiy tamoyillari.
13. F.Shopen va Polyak musiqa san'ati.
14. G.Berliozning musiqiy tangidiy qarashlari.
15. F.List_fortepiano ijrochiligining islohotchisi.
16. D.Verdi ijodining tarixiy ahamiyati. I Brams ijodida neoromantic tamoyillar va ularning keyingi davrlar musiqasiga ta'siri.
17. Dasturli simfonizm rivojida G.Berliozning "Fantastik. simfoniyasi" ning ahamiyati.
18. Yangi davr musiqa madaniyati rivojlanish jarayonlarining murakkabligi . XX asr madaniyatining asosiy yo'nalishlari: verizm va simvolizm , impressionism va ekspressioniz, neoklassitsizm, syurrealizm, minimalizm, postmodernism. Fransiyada impressionizmning vujudga kelishi va rivojlanishi.
19. K. Debyussi va M. Ravel ijodining estetik tamoyillari.
20. Madaniyatdagi ma'naviy harakat sifatida Avstriya ekspressionizmining shakllanishi . Ekspressionizm vakili bo'lgan buyuk simvolchi G. Maler.
21. Yangi Vena maktabi, namoyandalari –A. Shonberg, A.Berg, A.Vebern, AShyonbergning pedagogic ahamiyati faoliyati va qarashlari
22. XIX asr rus musiqa madaniyati.
23. "Qudratli to'da" va rus musiga san'ati.
24. Rus kompozitorlari ijodidagi tarixiy rivojlanish bosqichlari. Musiqiy

	asarlarnamunalari tahlili. 25.N.A.Rimskiy —Korsakov ijodida sharq mavzular. 26.XX asr musiqasi yo"nalishlar va omillar. 27.S. Prokofev balettari. 28.1941-1945 yillardagi urush davrida musiqa. 29.D.Shostakovichning simfoniyalari vokal – simfonik asarlari. 30. D.Shostakovich "24 prelyudiya va fuga" turkumi. 31.E.Denisov. R.Shedrin asarlari tahlili. 32.XX asr 80 – yillari rus musiqasining neoromantic tamoyillari. 33.XX asr 90 – yillarida S. Gubaydulina, A. Shnitke asarlarining ahamiyati. Mustaqil o'zlashtirgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirishnatijasida talaba: - Jahon musiqa madaniyatining ko'p asrlik rivojlanish tarixi hamda hozirgi zamon; - Jahon musiqa madaniyati va san'atiga oid asosiy yodgorliklar va manbalar haqida tasavvurga ega bo'lishi; - Jahon xalqi hayotining turli tarixiy davrlaridagi eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlarni; - Jahon kompozitorlari ijodiyotining yo'nalishlari va janrlari,uslublarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - Jahon kompozitorlik ijodiyotining asosiy janr va shakllarini, uslubiy voqe'liklarini tahlil etish; - Jahon zamonaviy musiqasidagi jarayonlarni tahlil etish va tanqidiy baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Maruzalar; • Amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blits - so'rov • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • yakka mashg'ulot: - individual loyihalar:
5	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlilnatijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dastumi topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Tursunova R., Tursunova G. Jahon musiga tarixi fanidan o'quy qo'llanma.
2. Tayurenko NI". Heropua syahix Haroaoa xupa. Buin.3. —T., "Mycuxa",
- 1.Галущенко И.Г. История музыки народов мира. Вып.3. Т., "Музыка". 2008.
- 3.История зарубежной музыки. Выпуск 1-6, М.-СПб., 1986-2001. I-т.-535 б., II-т. —277 б., III-т. — 533 б., IVт. — 529 б., V т. — 448 б.
4. История русской музыки. Выпуск 1-4, М., 1981-1987. I-т.-623 б., II-т.-580 б., III-т.-486 б., IVт.-525 б
5. O.A.Ibrohimov, G'.M.Xudoyev. "Musiga tarixi" O'quv qo'llanma T.2018y., 313b.
6. R.Tursunova, G.Tursunova. "Jahon musiga tarixi" O'quv qo'llanma T.2017y., 153b.
7. Qosimxo'jaeva S.B. Jahon musiqasi tarixi (XXasming birinchi yarmi rus musiga madaniyati)—T., "Musiga". O'quy qo'llanma .2019 y
8. Qosimxo'jaeva S.B. Jahon musiqasi tarixi (XXasmning ikkinchi yarmi rus musiga madaniyati)—T., "Musiga". O'quy qo'llanma. 2020 y

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-488 b.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. -T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlashyurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32
- 4.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
- 5.Грубер Р. История музыкальной культуры. т. 1-2, М.,1941-1953.-873 б.
- 6.Музыкальная эстетика Западноевропейского средневековья и Возрождения. М., 1965.-546 б.
- 7.Музыкальная эстетика Западной Европы XVII-XVIII vv. М.,1971.-534s
- 8.Музыкальная эстетика стран Востока. М., 1967.-437 б.
- 9.Музыкальная эстетика Германии XIX в. т. 1-2, М., 1983.-287 б.
- 10.Теоретические наблюдения над историей музыки. М., 1987.-295 б.
11. Очерки по истории зарубежной музыки. М., 1983.
- 12.История и современность. Л., 1981.
- 13.Житомирский Д., Леонтева О., Мяло К. Западный музыкальный авангард после второй мировой войны. М.,1989.-303 б.
- 14.Габитова А. Минимализм в музыке. Т., 2007.-125 б.

Internet saytlari:

1. www.ziynet.uz – O'zbekiston ta'lim portali
2. <http://www.uzbeknavo.uz>- O'zbeknavo EB
3. <http://www.uzbekteatrskm.uz>- "O'zbekteatr" IICHB
4. <http://www.muz-urok.ru/> Noti.knigi o muzike, uchebniki po muzike.
5. <http://lib-notes.orpheusmusic.ru/news>
6. www.compozitor.spb.ru/
7. www.sanat.orexca./rus/
8. <http://yontheatre.uz/istoriya/>
9. <http://classic.manual.ru/> - Klassik musiqa namunalari
10. <http://opera-class.com/index.html>

7 Fan dasturi Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik va pedagogika fakulteti "Musiqi ijrochiligi va madaniyat" kafedrasida Kengashining 2025 yil "27" avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun mas'ul:

8 O'.R. Ibodov - San'atshunoslik va pedagogika fakulteti, Musiqi ijrochiligi va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi  ibodovuktam7419@gmail.com

Taqrizchi:

9 BuxDU San'atshunoslik va pedagogika fakulteti "Musiqi ijrochiligi va madaniyat" kafedrasida professor, p.f.n.  B.I. Mustafoyev